

WAYS FOR PRIMARY SCHOOL WORKERS TO WORK

**Scientific adviser: doctor of philological sciences M.Ernazarova
Shahrizoda Ziyadullayeva**

3rd year student of Navoi State Pedagogical Institute, Department of Primary Education and Sports
Education

Abstract

The article discusses the ways to use the works of our thinkers in the development of independent thinking and speech development of primary school students, the role of national and universal values in improving the quality of education.

Keywords:

Content of education, quality of education, independent thinking, national and universal values.

Bugungi kunda qarqaror sur'atda rivojlanayotgan mamlakatlar asosini yuksak bilim va malakaga ega, intellektual salohiyat sohibi bo'lmish yoshlar tashkil etadi. Shu bois, yoshlarning yuqori bilim va tajribaga ega bo'lib voyaga yetmoqlari davlatimizning ertangi kuni uchun muhim omillardan biri sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'nan va aqlan barkamol, bilimli inson qilib tarbiyalash vazifasi ko'p jihatdan boshlang'ich sinfda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning nutqini talab darajasida o'zlashtirish bilan bog'liqdir. So'z zahirasi boy o'quvchining fikrlash doirasi keng, ta'lim olishga layoqati baland, ma'naviyati yuksak bo'ladi, albatta. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. "Agar o'quvchi va uning tilidan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'zlashtirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushunkladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'zlashtirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi".¹

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini o'rgatish va ularning nutqini rivojlantirishga doir ishlar ta'lim-tarbiya ishlari ichida alohida o'rin tutadi. Ushbu ishning maqsadi esa, bolalarga nutqiy muloqotning muhim shakllari-og'zaki nutqni adabiy til me'yorlariga muvofiq holda egallash, to'liq ko'rinishda tushunish va faol nutqqa kirishishni o'rgatish. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda ongli o'qish, so'zlash va yozishga o'rgatish, til haqida o'quvchilarning yoshi va tushunishiga mos bo'lgan bilim berish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug'atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish, og'zaki nutqni o'rgatish, ya'ni boshqalarning nutqiga e'tibor va qiziqishni o'zlashtirish, ravon nutqni rivojlantirish va kitob o'qishga muhabbat uyg'otishni ko'zda tutadi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida olib boriladigan barcha mashg'ulotlarning yetakchi o'rnini nutq o'zlashtirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi".² O'quvchilar nutqini o'zlashtirish ishlari murakkab jarayon bo'lib, u pishiq tayyorgarlikni, materiallarning rang-barang va qiziqarli bo'lishini talab etadi va u boshlang'ich sinflarning dastlabki davrlarida og'zaki tarzda olib boriladi. Nutq o'zlashtirish ishlarini xilma-xil ko'rinishda o'tkarish o'quvchilarning faolligini oshiradi, lug'atini yangicha so'zlar bilan boyitadi va ularda bog'lanishli

¹ Рождественский Н.С., Кустарева В.А. Методика начального обучени русскому языку. -М.: "Просвещение", 1965. 289-бет.

² Ivanov P.I. Umumiy psixologiya.- T.: "O'qituvchi", 1967.306-bet

nutq malakasini rivojlantiradi. 1-sinf "O'qish kitobi"da berilgan Eson Rahimovning "Ota rozi- Vatan rozi"³ she'rini olaylik:

Ota rozi - Vatan rozi,
O'g'lonlarim, qizladim.
Vatan rozi - ota rozi,
Yashang o'chmas izlarim.

Bu ifodaning lo'nda, ixcham va ravonligi, shuningdek, Vatanning barcha o'g'il-qizlar uchun muqaddas ekanligi ham uning darajasini oshiradi. Bu she'r orqali o'quvchilarga "Vatan deganda nimani tushunasiz?", "Kim yaxshi farzand deyiladi?", "Vatan bizdan rozi bo'lishi uchun nima qilish kerak?" kabi savollar beriladi. O'quvchilar lug'atini so'z boyligi bilan ko'paytirish maqsadida "Vatan" so'ziga ma'nodosh so'zlar topiladi:

- o'lka

Vatan - yurt

- diyor

Shuningdek, she'r va matnlardan so'ng keltirilgan maqol va hikmatli so'zlar ham o'quvchilar nutqiga ijobiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shu kitobdan joy olgan "Biz buyuklar avlodi" bo'limida Muhammad Alining "Amir Temur"⁴ bobomiz haqida ibratli matni berilgan bo'lib, matndan so'ng Amir Temurning do'stlik, aql va adolat haqidagi o'gitlari o'quvchilarga ravon va tushunarli holda bayon etilgan. Shuningdek, g'azal mulkining sultoni bo'lgan Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari, tib ilmining otasi Abu Ali ibn Sino, buyuk munajjim Mirzo Ulug'bek hamda shoh va shoir Bobur Mirzo nomlari va asarlari keltirilgan bo'lib, bu o'quvchilarning nutqini o'stirish, tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning ta'lim-tarbiyasi va odob-axloqiga chuqur ta'sir ko'rsatadi va murg'ak qalb egalarida yoshlikdan "Vatanparvarlik" tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, insonlarning nutqi chiroyli va mukammal, talaffuzi aniq va ravon bo'lsa, fikrlash doirasi ham keng, idrok qilishi teran bo'ladi. Chiroyli so'zlashni, to'g'ri va savodli yozishni, o'z fikrini ravon va teran bayon etishni bilgan o'quvchilargina bilimlarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtira oladi. Bu esa ularning kelgusi zafarlarini ta'minlaydi. Ravon fikrli, aniq maqsadli bunday yoshlar bilan davlatimizning ertangi istiqboli, kelajagi yorqin bo'lishiga shak-shubha yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рождественский Н.С., Кустарева В.А. Методика начального обучени русскому языку. -М.: "Просвещение", 1965. 289-bet.
2. Ivanov P.I. Umumiy psixologiya.- T.: "O'qituvchi", 1967.306-bet
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik "O'qish kitobi".- T.: "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018. 9-bet.
4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik "O'qish kitobi".- T.: "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018. 21-bet.

³Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik "O'qish kitobi".- T.: "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018. 9-bet.

⁴ Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik "O'qish kitobi".- T.: "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018. 21-bet.